



**BO'LAJAK PEDAGODLARDA KASBIY MOYILLIK NAMOYON
BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI**

Saidova Nargiza Ismatulla qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat

Pedagogika Universiteti, Umumiy psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Turdiyeva Marhabo Asror qizi,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti,

Tasviriy san'at yo'nalishi, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak pedagoglarda kasbiy moyillikning shakllanish jarayoni va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy tarbiya, ijtimoiy stereotiplar, ta'lim muassasalari va shaxs tipologiyasining kasbiy tanlovga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, kasbiy moslashuv jarayoni, pedagogik motivatsiya va pedagoglarning kasbga bo'lgan munosabati psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Natijalar asosida kasbiy moyillik shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, bo'lajak pedagoglarning kasbiy rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: kasbiy moyillik, ijtimoiy-psixologik omillar, pedagogik faoliyat, shaxs tipologiyasi, kasbga yo'naltirish va motivatsiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются проявления профессиональной направленности у будущих учителей, а также методологические основы, условия, возможности и методы профессионального самосознания. Особенности, которые необходимо учитывать будущему педагогу, освещаются следующим образом.

Annotation. This article discusses the manifestation of professional orientation in future teachers, as well as the methodological foundations, conditions, opportunities, and methods of professional self-awareness. The characteristics that need to be considered by future educators are presented as follows.

Bugungi kunda yoshlarning kasbiy moyilligini shakllantirish va ularni to'g'ri yo'naltirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada ta'lim tizimining roli katta bo'lib, **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev** ta'kidlaganidek: "O'qigan, izlangan, kasb egallagan odam qadrlı bo'ladi." (Mirziyoyev, 2023). Ushbu fikr kasbiy moyillikni shakllantirishda ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhitning o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ushbu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, yoshlarning kasbiy moyilligini shakllantirishda ta'lim muassasalari, oilaviy tarbiya va jamiyatdagi kasbiy stereotiplarning o'rnı beqiyosdir. Kasbiy moyillik – bu shaxsning muayyan kasbga nisbatan qiziqishi, ishtiyoqi va moyilligi bo'lib, uning kasb tanlashi va kelajakdagi mehnat faoliyatida muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshiradi.



Kasbiy moyillik quyidagi omillarga bog'liq:

- **Shaxsiy qiziqishlar** – odamning o'ziga yoqadigan, zavq beradigan faoliyat turlari.
- **Qobiliyat va kompetensiyalar** – muayyan kasbda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi.
- **Motivatsiya** – kasbiy yo'nalishni tanlashdagi ichki va tashqi turtki omillari.
- **Ijtimoiy va oilaviy ta'sir** – atrof-muhit, ota-onalar, jamiyat va ta'lim muassasalarining yo'naltiruvchi roli.

ASOSIY QISM

Kasbiy moyillik bu- shaxsning muayyan bir kasb yoki faoliyat turiga qiziqishlari. U shaxsning ishtiyoqi intilishi bo'lib qadriyatlari, xususiyatlari bilan bog'liq holda shakllanadi. Bo'lajak pedagoglarda uchraydigan kasb tanlashda uzlarining qiziqishlaridan emas balki ijtimoiy psixologik omillar- ya'ni biron bir shaxsning qaror qabul qilishda jamiyatda ijtimoiy muhit va psixologik jarayonlar sabab buladi .

Kasb tanlash o'smirlar uchun muhim muammolardan biridir. Tanlov doirasi qanchalik keng bo'lsa, u shunchalik psixologik jihatdan murakkablashib boradi. Shaxsning subyektiv moyilliklari hamda u yoki bu faoliyatga qobiliyatliligi bir butunlikni tashkil etadi. Qiziqish va moyillik faoliyat jarayonida shakllanadi va o'zgarib boradi. Biroq o'smirlarda yaqqol ifodalangan, barqaror va faol moyillik har doim ham kuzatilmaydi. Kasb tanlash arafasida turgan o'smirlarning mazkur sohaga qanchalik mos, moyil ekanligi faqatgina faoliyat kuzatuv, nazariy tajriba jarayonidagina aniqlanadi. Kasb tanlash motivlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar juda ko'p bo'lib, ular bir-biri bilan o'zaro mutanosiblikka ega. O'smirning kasb tanlashiga ta'sir etish kuchiga ko'ra:

Asosiy o'rinni do'stlari va o'rtoqlari bilan bir-birini tushunish munosabatlari tashkil etadi.

Ikkinchi o'rinni tez ta'sir etuvchi ommaviy axborot vositalari - kitoblar, gazeta, jurnal, kinofilm, teleko'rsatuvlar, ayniqsa, Internet egallaydi.

Uchinchi o'rinda pedagogik jamoa, sinf rahbari, fan o'qituvchilari, ta'lim muassasasi direktori va o'rinbosarlari, mahalladoshlari turadi.

To'rtinchi o'ringa oiladagi bevosita ma'naviy-ma'rifiy muhitni qo'yish mumkin.

Beshinchi o'rinni o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayoni egallaydi. Ya'ni, o'spirin qanchalik yuqori darajada o'zlashtirsa o'quv fanlari uning kasb tanlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatib o'z samarasini beradi.

Keyingi navbatda darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy-foydali va ishlab chiqarish mehnatini ko'rsatish mumkin. O'smirlarda biror o'quv faniga ishtiyoq natijasida ularda har xil kasblarga qiziqish paydo bo'lgach, tanlangan kasbni o'zlashtirish bilan bog'liq fanga qiziqish tobora ortib boraveradi. Natijada fan to'garak mashg'ulotlariga va fakultativ kurslarga qatnashish ishtiyoqi vujudga keladi. O'smir bu imkoniyatdan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq, deb ta'kidlamoqchimiz. Kasb tanlash o'smirda kasblar olami va ularning insonga hamda uning xususiyatlariga qo'yiladigan talablar haqida tasavvurlar





bo'lishini taqozo etadi. Ba'zan ularning har ikkisi ham o'smirlarda yetishmasligi mumkin. O'smirlarda kasblar haqida yaqqol tasavvur bo'lmashligi sababli, ular ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlangan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb qanday shaxsiy fazilatlarini talab qilishini tushunib yetmaydilar. Psixologiya fanida kasbiy shakllanish jarayonini davrlashtirishning bir necha variantlari ishlab chiqilgan. Bu borada rus olimi **T.V.Kudryavsev** shaxsning kasbga munosabati va faoliyatni bajarish darajasi mezoniga ko'ra kasbiy shakllanishning

quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatgan:

- 1) *kasbiy moyillikning paydo bo'lishi va shakllanishi;*
- 2) *kasbiy ta'lim va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish;*
- 3) *kasbiy faoliyatga kirishish, jamoada o'z o'rnini topishga faol intilish;*
- 4) *kasbiy mehnatda shaxsning o'zini to'liq namoyon etishi* [2; 16].

Mazkur tasnifda keltirilgan har bir bosqichda kasb tanlashga undagan motivlarning kuchi va sifati muhim ahamiyatga egaligi ko'rsatib o'tilgan.

Rus olimi **E.A.Klimov** esa insonni mehnat subyekti sifatida talqin etib kasbiy yo'nalgan davrlashtirishni quyidagicha asoslab bergan:

- 1) ***o'yindan oldingi bosqich*** (4 yoshgacha bo'lgan davr) – kishining keyingi rivojlanishi va mehnatga kirishuvi uchun asos bo'lgan idrok qilish vazifalarini o'zlashtirish;
- 2) ***o'yin bosqichi*** (5-8 yosh) – inson faoliyatining “asosiy mazmuni”ni o'zlashtirish;
- 3) ***o'quv faoliyatini o'zlashtirish bosqichi*** (8-12 yosh) - faoliyatni rejalashtirish, o'zini-o'zi nazorat va tahlil qilish;
- 4) ***optasiya bosqichi*** (12-17 yosh) – kasb-hunar ta'limi muassasalarida kasb tanlash davri;
- 5) ***adept bosqichi*** (17-20 yosh) –tanlangan ixtisoslik bo'yicha kasbiy tayyorgarlik;
- 6) ***adaptant bosqichi*** (20-23 yosh) –kasbning ichiga kirish va unga ko'nikish;
- 7) ***Internal bosqich*** (23-26 yosh) – kasbiy tajriba to'plash;
- 8) ***kasbiy mahorat bosqichi*** – mehnat faoliyatini malakali bajarish;
- 9) ***obro'-e'tibor bosqichi*** – mutaxassis tomonidan yuqori malakani o'zlashtirish;
- 10) ***ustozlik bosqichi*** –mutaxassis tomonidan kasbiy tajribani shogirdlarga berish, o'z maktabini yaratish [3; 38].

Shaxsda kasbiy o'zligini anglash shakllanishini kasbiy mahoratning vujudga

kelishidagi asosiy mezonlardan biri sifatida ham bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin: 1. Kasblar olami haqidagi aniq – ko'rgazmali tasavvurlarning paydo bo'lish davri. Bu davr 2,5-3 yoshdan boshlanib 10-12 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Taraqqiyot davomida bolaning ongida kasblar olami haqidagi turli-tuman tasavvurlar shakllanib boradi

Shaxsning kasbiy rivojlanishini tushuntirishda ikki muhim nazariy yondashuv mavjud. John Holland (1997) o'zining kasbiy shaxsiyat nazariyasida odamlarni olti turga bo'lgan:



- *realistik,*
- *tadqiqotchilik,*
- *artistik,*
- *ijtimoiy,*
- *korporativ*
- *an'anaviy.*

Pedagogik kasb eng avvalo ijtimoiy va tadqiqotchilik turlariga mos keladi. Agar shaxsning shaxsiyati va kasbiy muhiti o'zaro mos bo'lsa, u kasbida muvaffaqiyatga erishadi va undan zavq oladi (Holland, 1997). Donald Super (1980) esa kasbiy rivojlanish jarayonini hayot davomida bosqichma-bosqich shakllanadigan jarayon deb hisoblaydi. U kasbiy rivojlanishni quyidagi bosqichlarga ajratgan:

- ✓ **O'sish (4-13 yosh)** – bolalik va o'smirlik davrida qiziqishlar, qadriyatlar va mehnatga munosabat shakllanadi.
- ✓ **Tadqiqot (14-24 yosh)** – kasbiy sinov va tanlash jarayoni boshlanadi.
- ✓ **Barqarorlik (25-44 yosh)** – shaxs tanlagan kasbida rivojlanadi.
- ✓ **Saqlash (45-64 yosh)** – kasbiy faoliyatni davom ettirish va o'zgarishlarga moslashish davri.
- ✓ **Pasayish (65 yoshdan yuqori)** – kasbiy faoliyatdan chekinish bosqichi.

Superning yondashuvi bo'lajak pedagoglarning kasbiy moyilligini erta bosqichlarda aniqlash va rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi.

Demak, xulosa qiladigan bo'lsak, bo'lajak pedagoglarda kasbiy moyillik shakllanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unga shaxsiy qobiliyat, oilaviy tarbiya, ta'lim tizimi hamda ijtimoiy-psixologik omillar ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik faoliyatga moyillik nafaqat tug'ma qobiliyat va shaxsiy qiziqishlar bilan, balki ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlar va kasbiy motivatsiya bilan ham chambarchas bog'liq. Holland (1997) o'zining kasbiy shaxsiyat nazariyasida pedagogik faoliyatni ijtimoiy va tadqiqotchilik turiga mos deb hisoblaydi, chunki bu kasb muloqot, hamkorlik va innovatsion yondashuvni talab qiladi. Super (1980) esa kasbiy rivojlanish jarayonini hayot davomida bosqichma-bosqich shakllanadigan jarayon deb tushuntiradi va uni erta bosqichlardan rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi.

Pedagogik kasbga bo'lgan qiziqishni oshirish va kasbiy identifikatsiyani shakllantirish uchun ta'lim tizimida maxsus selektiv dasturlarni joriy etish, mentorlik tizimini yo'lga qo'yish, kasbiy va psixologik moslashuv bo'yicha treninglar tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, tajribali o'qituvchilar va yosh pedagoglar o'rtasida mentorlik dasturlarini rivojlantirish orqali kasbiy motivatsiyani kuchaytirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatga kasbga sodiq, malakali va motivatsiyali pedagoglarni yetkazib berishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2021, 13-oktyabr). O'qigan, izlangan, kasb egallagan odam qadrli bo'ladi [Navoiy shahridagi "Ishga marhamat" monomarkaziga tashrifi chog'ida aytilgan nutq]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/4737>
2. Sirojiddinova I.M., Pulatova O.X. (2021). Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. (59-bet).
3. Sirojiddinova I. M., Po'latova O. X. Kasbiy psixologiya nomli o'quv qo'llanma — 2021. (Bet)
4. Yuldasheva, M. B., & Ergasheva, G. O. (2023). O'smirlarda kasbga moyillikning ijtimoiy-psixologik omillari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 3(2023), 388-392

Internet saytlari:

5. http://www.deti.zr.ua/show_article.rhr?a_id=300105. Gosudarstvennaya pomosh detyam- sirotam.
6. <http://eraria.onego.ru/sirota.htm>. Sirotstvo v istorii Rossii.